

“INGLIZTILINI O'QITISHDA FONETIKA VA LEKSIKANING O'RNI”*Jizzax viloyati Zarbdor tuman**1 -umumiyl o'rta ta'lim mактабининг Ingliz tili fani o'qituvchisi****Yaxshilikova Muhayyo Mavlon qizi***

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarda fonetik o'zgarishlari, ingliz tiliga mansub so'zlarning rus tili orqali o'zbek tili lug'at tarkibiga kirib kelishi natijasida ularda ancha o'zgarish va moslashishlar tartibi hamda tilshunoslikning til o'qitish metodikasi bilan bog'liq bo'lgan eng muhim nazariy muammolaridan biri til o'qitish tizimining aniqlash bo'yicha ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ingliz tili, fonetik, morfologik, semantik, animativ, ma'lumotlar, tilshunoslik, o'zlashmalar, struktur tuzilish.

Ma'lumki, ingliz tili eramizning 3-5-asrlarida Britaniya orollariga ko'chib kelgan angl, saks va jut qabilaviy dialektlarining birlashishi natijasida shakllangan. e. Ingliz tili tarixi yaratilgan birinchi yozma yodgorliklar 8-asrga to'g'ri keladi. Ingliz tili uzoq yo'lni bosib o'tdi, rivojlanish jarayonida boshqa tillar (Skandinaviya, Romantik tillar) bilan kesib o'tdi va ushbu tillar hisobiga o'z lug'atini boyitdi. Turli davrlarda ingliz tilining yagona me'yorini o'rnatish va adabiy shaklini rivojlantirishga bir necha bor urinishlar qilingan. Biroq, ma'lumki, faqat kapitalizm davrida ingliz tili boshqa barcha dialektlarni o'ziga bo'ysundirib, ularni allaqachon o'rnatilgan me'yorlarga muvofiq qayta ishlagan holda xalqning milliy tiliga aylanishi mumkin edi. Shunday qilib, faqat XV-XVI asrlarda kapitalistik tuzumning feodal tuzum ustidan g'alaba qozonishi natijasida sanoat va savdoning jadal rivojlanishi natijasida yagona ingliz milliy adabiy tilining shakllanishi haqida gapirish mumkin. 16-17-asrlarda ingliz millatining shakllanishi davrida London shevasi asosida rivojlangan ingliz milliy tili jadal rivojlanmoqda. Ingliz adabiy tilining ma'lum til normalarining rivojlanishi va mustahkamlanishiga bir qator omillar yordam berdi. 16-17-asrlar davrida adabiy til rivojiga ta'sir ko'rsatgan o'zaro ta'sir etuvchi omillardan 3 ta asosiysini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Uyg'onish davridagi klassik misollarga umumiy qiziqish va shuning uchun klassik grammatika va ritorikaga, ayniqsa lotin grammatikasiga taqlid qilish va qadimgi tilshunoslik tizimining ingliz tili tizimiga o'tishi;

2) arxaik purizm deb atalmish ta'sir, boshqacha aytganda, ingliz tili lug'atiga, xususan, lotin va frantsuz so'zlariga yot so'zlarning ommaviy kirib kelishiga qarshi kurash va bu kurashning ko'rinishlaridan biri sifatida, tilning eskirgan me'yorlariga yo'naltirilganligi;

3) so'zlashuv xalq ingliz nutqining yashash va rivojlanish, barqaror bo'limgan va shuning uchun tez o'zgaruvchan normalariga e'tibor qaratish.

Inglizcha so'zlarning o'zbek tiliga o'tish jarayonini uch davrga bo'lish mumkin. Birinchi davr 1917 yilgacha bo'lgan davr, ikkinchi davr 1917 yildan 1991 yilgacha bo'lgan davr yoki sovetlar davri, uchinchi davr mustaqillik yillari, ya'ni 1991 yildan hozirgacha bo'lgan davr. Biz to'plagan misollar va ularning tahlili shundan dalolat beradiki, ingliz tilidan o'zbek tiliga kuchgan so'zlarning asosiy qismi ikkinchi davrga to'g'ri keladi va ularning hammasi rus tili orqali o'zlashgan.

Birinchi davrda boshqa german tillaridan, jumladan, nemis tilidan kirib qolgan so'zlar bor, biroq inglizcha to'g'ri keladigan inglizcha so'zlar uchramadi. Uchinchi davrga to'g'ri keladigan inglizcha so'zlar anchani tashkil etadi. Bu so'zlar ham ikkinchi davr so'zlariga o'xshab rus tili orqali o'tgan. Shunday qilib, ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarinng hammasi ham bilvosita rus tili orqali o'zlashgan so'zlardir.

Boshqacha qilib aytganda, ingliz tilidan o'zbek tiliga ko'chgan so'zlar avvalo rus tilining o'ziga xos qonun-qoidalariga bo'ysunib, uning fonetik, orfoepik va grammatik normalarini qabo'l qilgan. Rus tilidan o'zbek tiliga o'zlashganda esa so'zlar ruscha o'zgarishlar ustiga o'zbek tiliga xos o'zgarishlarni ham olgan. Ko'rinish turibdiki, ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar ikki jarayon va holatni boshdan kechirgan: avvlo rus tilida, undan keyin esa o'zbek tiliga ma'lum o'zgarishlarga duch kelgan.

Shuni aytish o'rinniki, ingliz tilidan rus tiliga o'zlashgan so'zlarning hammasi yo transkripsiya yoki tranmeterasiya usuli orqali qabul qilingan. Shunga ko'ra ularning bir qismi o'z holicha, o'zgarishsiz qabul qilingan, ikkinchi bir qismi esa turlicha fonetik, orfoepik, grammatik o'zgarishlarga yo'liqqan. Ingliz tiliga mansub so'zlarning rus tili

orqali o'zbek tili lug'at tarkibiga kirib kelishga nazar tashlasak, ularda ancha o'zgarish va moslashishlar yuz berganining guvohi bo'lamiz. Bu o'zgarish va moslanishlar quyidagicha ko'rinishga ega:

1. O'zlashmalardan fonetik fonetik o'zgarishlar;
2. O'zlashmalardagi morfologik o'zgarishlar;
3. O'zlashmalardagi semantik o'zgarishlar;

Hozirgi kunda chet tillarni o'qitishning bunday tizimini aniqlashda faqat til birliklarigina emas, ham o'zaro bir-biriga bog'lanishi va ta'sirini ko'zda tutish kerak bo'layapti. Aniqroq qilib aytganda, hozir tilning ichki tuzilishini hisobga olish bilangina emas, balki uning funksional-semantik aspektini nazarda tutish ham kunda lingvodidatikaning tarmoqlararo aloqalarida funksional-semantika jihatdan eng muhim omillardan hisoblanadi. Ushbu maqolada yuqorida masalalarni animativlik (rus tilidagi «odushevlenny» atamasiga mos keladi) kategoriysi misolida ko'rib chiqamiz, chunki bu tushuncha tilshunoslikning hozirgi bosqichida eng muhim leksik-grammatik kategoriylar ba'zi bir olimlar jins tushunchasi sifatida yondashsa, boshqalari grammatik rod kategoriysi ushbu deb ham qarashmoqda. Ushbu fikr ko'proq ingliz tillarda, xususan o'zbek tilida rod kategoriysi yo'q hisoblanadi.

Demak, bu kategoriya barcha tillar uchun xos universaldir. Ammo bu ma'noning ifodalanishida farq bor. Til o'qitishda ana shu farqni e'tiborga olish zarur. Masalan, rus tilida substantivlik kto? chto? so'roq olmoshlari bilan ifodalanib, animativlik yoki imanimativlik ma'nosini anglatadi. Demak, otlarning bu ikkala til tizimidagi tasnifi leksik-semantik tamoyilga asoslanadi. Rus tilida roditelnyiy va vinitelnyiy kelishiklarida animativlik-imanimativlik paradigmalari alohida bo'lsa, o'zbek tilida bunday hol mavjud emas. Bu narsa rus tilini chet tili sifatida o'rganish jarayonida, shuningdek, leksikani tasniflashda muayyan qiyinchiliklarni vujudga keltirad.

Ingliz va o'zbek tillarida animativlik ma'noga ega bo'lgan affikslarining deyarli hamma maxfiy (implisit) ifodalanish usuliga ega. Oshkor (eksplisit) ifodalanish ingliz tilida muvaqqat ko'rsatishdan iborat bo'lsa, turkiy tillarda esa bunday xususiyat umuman uchramaydi. Ikkala tilda ham otlardagi animativlik ma'nosini ifodalovchi zidlovchi affikslar mavjud emas. Bu ma'noni yuzaga chikaradigan boshqa qo'shimchalar yo'q.

Shunga ko'ra, otlarni jins jihatdan ajratish ehtiyoji har bir til guruhiga xosdir. Mana shunday hollarda animativlik tushunchasi tilning boshqa vositalari orqali beriladi va ushbu ma'no leksik-grammatik jihatdan, shu jumladan affiksasiya va kompozisiya yuli bilan ifodalanadi.

Xulosa. Ko'pincha yozma nutq tor ma'noda fikrni yozma bayon qilish deb tushuniladi. Aslida esa unday emas. Yozma nutq faoliyatlarining turlaridan iboratdir, yozuv esa yozuv texnikasi va fikrni yozma bayon qilishdan iboratdir. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, ikki tildagi unli fonemalar, soni, sifati holati va boshqa qo'shimchalari bilan keskin farq qiladi. Ingliz tilining amerika varianti unlilar o'rtasidagi fonologik ziddiyatlar o'zbek tilidagidan bo'lib ikki o'z barobar ko'p bo'lib farqlanish va farqlanmovchi belgilari ham o'ziga xosdir. Bu hozirgi xulosa asosida talaffuzga o'rgatish jarayonida unli fonemalar o'rtasidagi ziddiyatlarni hisobga olgan holda mashqlar tuzish va o'quvchilar ularni eshittirib farq qilish qobiliyatini rivojlantirish, binobarin audio va video tasmalarga yozilgan matnlarni eshittirishga odatlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Asfandiyorov I.U. «*Rus tilidan so'z o'zlashtirish bilan bog'liq ba'zi bir masalalar*». Toshkent. «O'zbek tili va adabiyoti» Jurnal, 1981 y. 5-son,
2. Baronojoyev X. va boshqalar «*English*» Toshkent. «O'qituvchi» 1978,
3. Galperin I.R. «*Bolshoy anglo-russkiy slovar*» Moskva 1979 g.
4. Jumaniyozov O. «*O'zbek tili german tillari o'zlashmaları*». Toshkent, «Fan», 1978.
5. Saidov X.X., Alimova M. «*Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarning klassifikasiyasi haqida*». Toshkent, «O'zbek tili va adabiyoti» Jurnal, 2003 y. 6-son.